

MONETAR SIYOSATI TRANSMISSION MEXANIZMINING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI

A. T. Absalamov

Mustaqil tadqiqotchi

Markaziy bank pul-kredit siyosatining transmission mexanizmi o'ziga xos kanallarga ega bo'lib, ular orqali pul-kredit siyosatining iqtisodiyotga ko'rsatilayotgan ta'sir impulslari uzatiladi. Transmission mexanizm kanallari monetar qarorlar to'g'risidagi e'lonlardan tortib, pul-kredit siyosati va iqtisodiyot real sektorining bir biriga bo'lgan ayrim o'zaro ta'sir mexanizmlarini ifodalaydi. Natijada pul-kredit siyosati sohasida amalga oshirilgan tadbirlardan keyin yuzaga kelgan real holatni aks etuvchi o'zgaruvchan ko'rsatkichlarga monetar siyosatni olib boruvchilarning teskari munosabati ham hisobga olinadi. Transmission kanallarining uzatuvchi mexanizmlari bir-biri bilan bog'liq makroiqtisodiy o'zgaruvchan ko'rsatkichlardan iborat bo'lib, ular pul-kredit siyosatida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni uzatish uchun mo'ljallangan. Shuningdek, ular milliy iqtisodiyotning o'ziga xosligiga, moliyaviy tizimga va pul-kredit orqali muvofiqlashtirishni amalga oshirish metodlariga bog'liqdir.

Dunyoning aksariyat mamlakatlarida Markaziy bank pul-kredit siyosati iqtisodiy rivojlanishni, narx barqarorligini hamda milliy valyuta kursi barqarorligini ta'minlashda asosiy o'rin tutadi. Markaziy bank pul-kredit siyosati bu kabi maqsadli makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga erishishda bir nechta bosqichni bosib o'tadi. Ushbu bosqichni zamonaviy til bilan aytganda transmission mexanizm deb atashadi.

Dastlab monetar siyosatida "transmission mexanizm" tushunchasi John Maynard Keynes tomonidan kiritilgan. J.Keynes pul taklifi orqali iqtisodiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatuvchi o'zgaruvchan ko'rsatkichlar tizimini "transmission mexanizm" deb atagan. Uning fikricha, pul massasi hajmining o'zgarishi foiz stavkasining o'zgarishiga olib keladi. Buning natijasida kredit bozori va qimmatli qog'ozlar bozori orqali tadbirkorlarning investision xarajatlariga ta'sir qiladi. Oqibatda yalpi ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Shundan keyingina tovarlar bozoridagi o'zgarish pul bozoridagi o'zgarishga ta'sir qiladi degan fikrga kelgan.

Oldin klassiklar nazariyasida bu kabi qarash bo'lmagan. Ushbu ilmiy maktab tarafdorlari pul taklifidagi o'zgarishlarning yalpi ishlab chiqarishga ta'sirini bosqichma-bosqich o'rganmasdan uni to'g'ridan-to'g'ri qiyosiy tahlil qilishgan.



Chunki ularning fikricha iqtisodiyotni “qora kuti” deb qarashib, undagi jarayonlar no'malumligicha qoladi deb ta'kidlashgan.

J.Keynes transmission mexanizmini quyidagi sxemada ko'rishimiz mumkin.

$$\begin{aligned} MB \text{ instrumentlaridagi } o'zgarishi &\Rightarrow \text{Pul taklifining } o'zgarishi \\ &\Rightarrow \text{Bozorfoizlarining } o'zgarishi \\ &\Rightarrow \text{Asosiy kapitalga investisiyalarning } o'zgarishi \\ &\Rightarrow \text{YalMning } o'zgarishi^1 \end{aligned}$$

Pul-kredit siyosati instrumentlarining ta'sirida pul massasi o'zgaradi, o'z navbatida, pul massasi ta'sirida esa bozor foiz stavkalari tebranishga moyillik ko'rsatadi. Buning natijasida tadbirkorlarning asosiy kapitalga kiritadigan investisiyalar hajmida o'zgarishlar yuzaga keladi. Oqibatda investisiyalar hajmining o'zgarishi yalpi ishlab chiqarish miqdorining o'zgarishi uchun ijobiy holat hisoblanadi.

Keyingi tahlillar shuni ko'rsatdiki J.Keynes transmission mexanizmi nafaqat korxonalarning investision xarajatlari orqali yalpi ishlab chiqarishga balki, iste'molchilarning xarajatlari va jamg'armalari borasida qarorlari orqali ham ta'sir etadi. Monetar siyosatning transmission mexanizmni tahlil qilganda pul massasining boshqa aktivlarga ta'sir qilishi M.Friedman tomonidan taklif qilingan. Shuningdek, Xorijiy adabiyotlarda mazkur mavzuga bag'ishlangan talay ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, J.Tobin, J.M.Fleming, R.A.Mundell, R.Dornbusch, A.Ando, F.Modigliani, J.E.Stiglitz, B.Bernanke, M.Gertler, A.S.Blinder, Frederic S. Mishkin, V.Ramey, A.K.Kashyap, J.C.Stein, J.B.Taylor, Peter N. Ireland, shu jumladan rossiyalik iqtisodchi olimlardan S.R.Moiseev, D.I.Kondratov, Ye.A. Leont'eva, P.V.Trunin, S.A.Andryushin, S.M.Drobishevskiy, I.S. Ivanchenko, I.L.Kaviskaya va boshqa ko'plab olimlar ishlarida ushbu muammo atroflicha ko'rib chiqilgan.

Ushbu sohani o'rganayotgan olimlar tomonidan pul-kredit siyosati transmission mexanizm mohiyatiga bir-biriga yaqin ta'riflar berishgan. Jumladan, Amerikalik olimlardan biri F.S. Mishkin fikridan pul-kredit siyosati transmission mexanizmi foiz stavkasi ta'sirida, almashinuv kursi ta'sirida, aktivlar bahosi o'zgarishi ta'sirida, hamda kredit kanali ta'sirida umumiy ishlab chiqarishga, xususan inflyasiyaga ta'sir etish jarayoni sifatida talqin qilsak bo'ladi².

¹ Кейнс Дж.М. (2019). Общая теория занятости, процента и денег. Москва, Юрайт. Китоби бўйича муаллиф томонидан тузилди

² Frederic S. Mishkin (1995). Symposium on the Monetary Transmission Mechanism/ The journal of Economic Perspective Vol. 9, No. 4, autumn – page 4.



Shuningdek iqtisodchi olim Peter N. Ireland “Pul-kredit siyosati transmission mexanizmi nominal pul massasi o‘zgarishi yoki qisqa muddatli foiz stavkaning yalpi ishlab chiqarish yoki ish bilan bandlikka ta'sirini ifodalaydi” degan fikrni bildirgan³.

Kanada Markaziy Bankining (Bank of Canada) transmission mexanizmga qarashlari bo'yicha “Transmission mexanizm – bu foiz stavkaga nisbatan bevosita markaziy bank siyosatini olib borish jarayoni bo'lib, oxir oqibat inflyasiya darajasiga ta'sir etish hisoblanadi. Ta'sir etish vaqtining, hamda aniq aloqadorlikning noaniqligi sababli ushbu jarayon murakkabdir”⁴.

MDX davlatlarining iqtisodchi olimlari transmission mexanizm borasida izlanishlariga unchalik ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Jumladan, Rossiyalik olimlar markaziy bankning iqtisodiyotga ta'sir etish mexanizmini 1998 yildagi bank inqirozidan keyin chuqur o'rganishni boshlashgan. Bunga ushbu inqirozdan keyin milliy xujalikdagi o'zgarishlar, hamda Rossiya Markaziy bankining oldiga qo'ygan maqsadli ko'rsatkichlarga erishish yo'lidagi muvaffaqiyatsizliklarni sabab qilib keltirsak bo'ladi.

Rossiyalik olimlardan S.R.Moiseevning fikricha “Pul-kredit transmissiyasi –bu markaziy bank instrumentlarini qo'llagan holda butun bir iqtisodiyotga, aloxida olganda inflyasiyaga ta'sir etish orqali aniqlanadigan mexanizmdir” degan muloxazani bildirgan. Shuningdek D.I.Kondratovning qarashlariga kura “Keng ma'noda transmission mexanizm – bu kanallar majmui bo'lib, davlatning muxim iqtisodiy maqsadlarini ifodalovchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir etadigan markaziy bankning monetar impulslaridir”⁵. Yana bir rus iqtisodchi olimi Ye.A.Leontyevaning fikriga ko'ra pul-kredit siyosatining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini uzatish mexanizmiga transmission mexanizm deb ataladi⁶. Rossiya Markaziy bankining pul-kredit siyosati transmission mexanizmiga bergan ta'rifiga ko'ra “Transmission mexanizm – bu pul-kredit siyosatidagi qarorlarning butun bir iqtisodiyotga, shu jumladan, avvalambor narx dinamikasiga ta'sir jarayonidir”⁷.

³ Peter N. Ireland (2005). The Monetary Transmission Mechanism / FRB of Boston WP No. 06-1. – November. – page 14.

⁴ How Monetary Policy Works: The Transmission of Monetary Policy / Bank of Canada. – 2012. – page 3.

⁵ Кондратов Д.И. (2010). Трансмиссионный механизм денежно – кредитной политики Еврозоны / Научные труды: Институт народнохозяйственного прогнозирования РАН. – №8. – стр. 171-172.

⁶ Леонтьева Е.А. (2013). Механизм кредитно-денежной трансмиссии в России/ Российская академия народного хозяйства и государственной службы при Президенте Российской Федерации. Москва. ст 7.

⁷ Отчет о результатах экспертно-аналитического мероприятия “Анализ реализации Основных направлений единой государственной денежно-кредитной политики в 2013 году” / Бюллетень счетной палаты. – 2010. - №10. – стр. 220-268.



Mamlakatimizdagi iqtisodiy olimlar tomonidan pul-kredit siyosatining ayrim yo'nalishlari borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, N.Jumaev Markaziy bank valyuta siyosati ustida ilmiy izlanish olib borgan bo'lsa, Sh.Abdullaeva tijorat banklarida kreditlash holati va kredit riskiga, T.Boboqulov milliy valyutamiz barqarorligiga, O.Namozov monetar siyosatga umumiy karagan bo'lsa, F.Dodiev o'tish iqtisodiyotida pul-kredit siyosati transmission mexanizmi kanallari hususida izlanish olib borgan. Jumladan, F.Dodiev taxriri ostida chop etilgan ilmiy loyixa ishida transmission mexanizm borasida muloxaza yuritar ekan uning mohiyatini quyidagicha qaragan. Ya'ni "Pul-kredit transmissiyasi –bu markaziy bank instrumentlarini qo'llagan holda butun bir iqtisodiyotga, aloxida olganda inflyasiyaga ta'sir etish orqali aniqlanadigan mexanizmdir"⁸. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining pul-kredit siyosati transmission mexanizmiga qarashlari bo'yicha "Pul-kredit siyosatining transmission mexanizmi o'zida Markaziy bank foiz stavkalari o'zgarishining iqtisodiy faollikka va pirovardida inflyasiya darajasiga ta'sir o'tkazish jarayonini aks ettiradi." deb keltirilgan. Mamlakatimiz olimlari transmission mexanizm borasida yaxlit tahlillar olib bormagan bo'lib, balki pul-kredit siyosati holatini tahlil qilgan.

Umuman olganda Markaziy bank pul-kredit siyosati transmission mexanizmi mavzusida mamlakatimizda o'rganilayotgan ilmiy ishlarda kam tadqiq qilingan. Bunga sabab, birinchidan, iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda (emerging markets), shu jumladan, O'zbekistonda ham bozor institutlarining talab darajada rivojlanmaganligi, davlatning iqtisodiy jarayonlarda keng ishtiroki, iqtisodiyotning monopollashganligi va o'tish davrining boshqa omillari transmission mexanizmning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga bo'lgan ta'siri natijalariga sezilarli bosim o'tkazadi. Bu, o'z navbatida, monetar siyosat transmission mexanizm ishini oqilona baholash masalasini jiddiy murakablashtirib yuboradi. Ikkinchidan, iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish masalasi rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda xos bo'lgan statistik ma'lumotlar sifati bilan sezilarli ravishda murakkablashadi.

⁸ Додиев Ф.У. и другие (2012). Оценка каналов трансмиссионного механизма денежно-кредитной политики в Узбекистане/ Исследовательский проект Института прогнозирования и макроэкономических исследования при поддержке Программы развития ООН. – Ташкент. –стр 7.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Кейнс Дж.М. (2019). Общая теория занятости, процента и денег. Москва, Юрайт. Китоби бўйича муаллиф томонидан тузилди
2. Frederic S. Mishkin (1995). Symposium on the Monetary Transmission Mechanism/ The journal of Economic Perspective Vol. 9, No. 4, autumn – page 4.
3. Peter N. Ireland (2005). The Monetary Transmission Mechanism / FRB of Boston WP No. 06-1. – November. – page 14.
4. How Monetary Policy Works: The Transmission of Monetary Policy / Bank of Canada. – 2012. – page 3.
5. Кондратов Д.И. (2010). Трансмиссионный механизм денежно – кредитной политики Еврозоны / Научные труды: Институт народнохозяйственного прогнозирования РАН. – №8. – стр. 171-172.
6. Леонтьева Е.А. (2013). Механизм кредитно-денежной трансмиссии в России/ Российская академия народного хозяйства и государственной службы при Президенте Российской Федерации. Москва. ст 7.
7. Отчет о результатах экспертно-аналитического мероприятия “Анализ реализации Основных направлений единой государственной денежно-кредитной политики в 2013 году” / Бюллетень счетной палаты. – 2010. - №10. – стр. 220-268.
8. Додиев Ф.У. и другие (2012). Оценка каналов трансмиссионного механизма денежно-кредитной политики в Узбекистане/ Исследовательский проект Института прогнозирования и макроэкономических исследования при поддержке Программы развития ООН. – Ташкент. –стр 7.

